

Proceedings of International Congress on “Multidisciplinary Studies in Education and Applied Sciences”

Hosted Online from Bilbao, Spain on November 10th, 2022.

www.conferencezone.org

KOXLEAR IMPLANTLI BOLALARDA REABILITATSIYANING ILK BOSQICHLARIDA KORREKSION PEDAGOGIK ISHLAR

Abdunazarova Shahlohon Shavkatjon qizi

Muqimiy nomidagi Qo'qon davlat pedagogika insituti

Maxsus pedagogika Defektologiya (surdopedagogika)

yo'nalishi II bosqich magistranti

Annotatsiya

Koxlear implantli bolalarda reabilitatsiyaning ilk bosqichlarida korreksion pedagogik ishlari haqida yoritilgan. Xususan koxlear operatsiya jarayoni va bosqichlari haqida va uni korreksiyalash masalalari olib berilgan.

Kalit so'zlar: reabilitatsiya, koxlear, kompensatsion, adaptatsion, diagnostik,implantatsiya

O'zbekiston Respublikasida kar bolalar ta'lif-tarbiyasiga, oilasiga e'tibor pedagogik yondashuvlar mutloq o'zgarib bormoqda. Maktabgacha yoshdagi va maktab yoshidagi kar va eshituvchi o'quvchilarning hamkorlikdagi ta'limi birinchi o'ringa chiqib ular uchun imkoniyatlar kuchaymoqda, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash" to'g'risidagi PF 5712-son farmoniga muofiq O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari yaxshilash [1]maqsadida bosqichma-bosqich yo'l xaritalari tuzildi va bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Eshitmaydiganlarni eshitadiganlar qatoriga qo'shish surdogedagoklarning eng oliy maqsadi va ularga ta'lim berish esa eng bosh mezonidir. I.V. Korolyova fikricha: "Qanchalik koxlear implantatsa erta qilinsa, shunchalik natijalar yaxshi bo'ladi" degan fikrni bildirgan .

Koxlear implantatsa eshitmaydigan (kar, zaif eshituvchi)bolalar eshituvchilar dunyosiga kirishi va dunyonи ovozlar, tovushlar orqali idrok etish imkoniyatini yaratuvchi hozirgi kunning eng samarali usullari hisoblanadi. Koxlear

Proceedings of International Congress on “Multidisciplinary Studies in Education and Applied Sciences”

Hosted Online from Bilbao, Spain on November 10th, 2022.

www.conferencezone.org

implantatsiya deganda ichki qulq eshitish nervining afferent tolalarini bevosita elektrostimulyatsiya qilish yo’li bilan eshitish sezgisini tiklash maqsadida elektrodlar tizimini joylash tushuniladi

Koxlear implantatsiyaning maqsadi ikkiga bolinadi ;

1. Nutqning tushunarligini oshirish

2.Fazoda tovush manbai lokalizatsiyasini yaxshilash

Nutqning tushunarligini oshirishdan maqsad: bir nechta so’zlashuvlar nutqini tushunish va tovushlarni ajratishga, gapirishga o’rgatish, lug’at boyligini oshirish. Hozirgi davrda surdotexnika va surdopedagogika fanlarning rivojlanishida innovatsion g’oyalar yordamida texnologiyalarning amaliyotda qo’llanilishi eshitishida nuqsoni bo’lgan bolalar uchun yangi ko’p kanalli koxlear implantatsiya yordamida eshitishini tiklash vositasida foydalanimishiga extiyojini kuchaytiradi . Koxlear implantatsa quydagi maqsadlarni ko’zlaydi

-Shovqin sharoitida nutqning tushunarligini 10-12% ga oshirish

-Fazoda tovush manbaining lokalizatsiyasini yaxshilash

-Reverberatsiya sharoitda, bir necha sozlashuvchilar bilan suhbatlashishda nutqning tushunarligini orttirish

-turli tovushlarni ajratishga va gapirishga o’rgatish lug’at boyligini oshirish

Koxlear implantatsiyaning vazifalari: Me’yordan chetga chiqishlarni erta tashxis qilish , eshitish sezgisini tiklash sog’lom insonlar orasida uyg’unlashish. Nutqni rivojlantirish koxlear implant qo’ylgan bolaning eshitish qobiliyati barcha nutq tovushlarini eshitish va farqlash imkonini beradi. Jumladan yuqori chastotali tovushlarni ham qabul qila oladi, lekin o’zları mustaqil ravishda fonematik eshituvning rivojlanishi, ya’ni nutqni eshitish va u asosida gapirib ketishi deyarli mumkin emas. Tajriba shuni ko’rsatadiki, bu bolalarga ma’lum muddat surdopedagogik yordam ko’rsatish orqaligina nutqni eshitish , uni taqlid qilish orqali egallashni o’rgatish mumkin. Hozirgi vaqtda reabilitatsa qilishning mavjud usullari asosan erta yoshda 3 yoshgacha joylashtirilgan bolalarga qaratilgan L.A.Golovchits, O.V.Zonotovaning asarlari nutqni reabilitatsa qilish va koxlear implantatsiyadan so’ng bolalarning nutqga o’rgatishning zamonaviy usullari ishlab chiqish masalalariga bag’ishlangan I.V.Koroleva, V.E.Kuzavkova, T.I.Obuxova, V.I.Pudova, N.D.SHmatako va boshqalar olimlarning fikriga ko’ra KI dan so’ng, bolaning nutqini shakllantirish, agar intelekt saqlanib qolgan bo’lsa va tizimli rivojlantiruvchi ish bilan ta’mirlansa , bu uzoq jarayon bo’lib eshitish

Proceedings of International Congress on “Multidisciplinary Studies in Education and Applied Sciences”

Hosted Online from Bilbao, Spain on November 10th, 2022.

www.conferencezone.org

qobilyatiga ega bolalar nutqning rivojlanish bosqichlaridan o'tadi . Bola muntazam ravishda faol va passiv so'z boyligini to'plashi, grammatik ko'nikmalarini va izchil nutq ko'nikmalarini egallashi mumkun.[2]

Koxlear implant bola qanchalik faol ,qiziquvchan bo'lmasin ,u iliq munosabatga doim extiyoj sezadi, sog'lom bola kabi koxlear implantli bolaning ham mehr-muhabbatga ehtiyoji qonuniyatdir. Koxlear implantli bola mehr-muhabbat muhitida tarbiyalanganda yaxshi rivojlanadi . Koxlear implant bola eshitish porogi- imkoniyati zaif eshituvchilarining 1 darajasiga teng bo'ladi , shuning uchun sekin ovozda aytilgan sirg'aluvchi tovushlarni qabul qilishi qiyin bo'ladi. Hozirgi kunda koxlear implantdan foydalanuvchilar soni tobora ortib bormoqda va ularning aksaryatini bolalar tashkil etmoqda. Koxlear implantatsa yordamida eshitishni qayta tiklash 3 bosqichda navbat bilan amalga oshiriladi .

1. Dastlabki (jarrohlikdan oldingi)bosqich
2. Jarrohlik bosqichi
3. Jarrohlikdan keyingi bosqich

Dastlabki jarrohlikdan oldingi bosqich bu bosqichda kompleks-diagnostika tekshiruvi, otologik va audioligik tekshirish va taxlil, vestibulometiya, kompyuter tomografiyasi , bosh miyaning elektrodiagnostik tekshiruvi umumiy tibbiy ko'rik hamda psixonevrologik tekshiruv jarrohlikka tayyarlovchi psixologik tayyorgarlik ishlari amalga oshiriladi. Dastlabki ya'ni jarrohlikdan oldingi bosqich bu jarayonning samarasini ta'minlovchi o'ta muhim bosqich hisoblanadi. Chunki bolaning butun organizimining jarrohlikga tayyorligi, yo'l-yo'lakay muommosiz amalga oshirilishini jarayonning samarali kechishini taminlaydi. Bola va uning oila a'zolarining psixologik jihatdan jarrohlikga ishonch hosil qilish ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, ilgari koxlear implantatsiya qilingan bolalar, ularning ota-onalari bilan tanishish, ularning erishgan natijalarini ko'rish orqali amalga oshirilgan.

Jarrohlik bosqichida Xirurgik jarrohlik amalga oshiriladi bu to'liq tibbiy jarayon uni tibbiyot mutaxasislari tomonidan amalga oshiriladi. Jarrohlikdan keyingi bosqich. Bu bosqich operatsiyadan keyingi reabilitasiya bosqichi bo'lib , oldingi ikki bosqichning samarasini belgilovchi va ta'minlovchi davr hisoblanadi. Bu davrda audiologlar jarrohlikdan so'ng bolaning eshitishini sozlash ishlarini olib boradi va ota-onas, surdopedagoglarga bola bilan ishslash tartibi bo'yichsa yakuniy

Proceedings of International Congress on “Multidisciplinary Studies in Education and Applied Sciences”

Hosted Online from Bilbao, Spain on November 10th, 2022.

www.conferencezone.org

maslahatlar beradi va surdopedagog faoliyatida so'ng eshitish imkoniyatlari bo'yicha implantni sozlab beradi. [3]

Maktabgacha yoshdan boshlab surdopedagogik yordam olgan bolalar maktab yoshgacha yetarli darajada nutqiy muloqot ko'nikmalarini egallab integratsiyalashgan korreksion maktab-internatga jo'natiladi. Maxsus integratsiyalashgan korreksion maktab internatida koxlear implanti bo'lgan bolalar ta'lim jarayonida va darsdan tashqari vaqtida surdopedagogik korreksiya yordamini olishi uchun barcha sharoidlar mavjud bo'lib, darsdan keyin olib boriladigan barcha korreksiya ishlari maxsus dastur asosida rejalashtiriladi. Masalan ularning nutqiy imkoniyati darajasida suhbatlar tashkil etish, kechalar, o'yin va sahna ko'rinishlari tashkil etish va hokazo. Bu jarayon sog'lom tengqurlari bilan birgalikda olib boriladi. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki implant qo'yilgan bolalar muvafaqqiyatli va tez samarali reabilitatsiyaga erishish uning imkoniyati, ehtiyoji, ruhiy-emotsional holatini o'rgana oladigan surdopedagogning karreksiyalovchi yordami zarur. Nutqning ravonligi, aniqligiga erishish uchun so'zlar talaffuzini tabiiy xolatda eshitib, taqlid qilib o'rganilishiga erishtiruvchi yondashuv talab qilinadi. Buning uchun mashg'ulotlar vaziyatli, muommoli vaziyatlardan iborat dialoglar, predmetli amaliy faoliyatlar keng qo'llanishi muhimdir. K.D.Ushinskiy aytganidek "Bizning vazifamiz bolani sinchkov kuzatishga, ko'rgan va eshitganlarini yagona, to'g'ri fikrga birlashtirishga, eshita olishga, ko'rishga va bu fikrni so'z bilan to'g'ri ifodalashga o'rgatishdir" degan. Chunki nutq bolaning har tomonlama kamol topishida muhim o`rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash" 5712 qarori. 2019
2. X.S Raximova Koxlear Implantli bolalar bilan logopedik ish o'quv qo'llanma.2021 yil
3. U.Fayziyeva, D.Nazarova, F.Qodorova Surdopedagogika malaka oshirish insitutlari va pedagogika insitutlari uchun o'quv qo'llanma.
4. Mahmudov Khurshid Shukhratovich "IMPORTANT ASPECTS OF COOPERATION IN THE INCLUSIVE EDUCATIONAL PROCESS"

Proceedings of International Congress on “Multidisciplinary Studies in Education and Applied Sciences”

Hosted Online from Bilbao, Spain on November 10th, 2022.

www.conferencezone.org

ACADEMICIA An International Multidisciplinary Research Journal (Double Blind Refereed & Peer Reviewed Journal)

DOI: 10.5958/2249-7137.2020.01334.8

5. Mo'minova L.R. "Nutqi to'liq rivojlanmagan mактабгача yoshdagи bolalar nutqini logopedik tekshirish bo'yicha metodik qo'llanma" Toshkent 1997 y.
6. Teshaoeva, F.R. THE USE OF COMPUTER GAMES TO DEVELOP SPEECH CAPABILITIES FOR CHILDREN WITH SPEECH DEFICIENCY. 2022/4/15. Conference Zone. Pages. 130-132
7. Sodiqovna, R. K. (2021, January). USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE FORMATION OF SPEECH SKILLS IN CHILDREN WITH HEARING DISABILITIES. In Euro-Asia Conferences (Vol. 1, No. 1, pp. 443-444).
8. Mo`minova L. Ayupova L. "Logopediya" "Toshkent" 1993-yil.
9. Mahmudova, M. S. (2020). THE ROLE OF INDEPENDENT EDUCATION IN THE FORMATION OF PROFESSIONAL COMPETENCIES OF PROSPECTIVE SPEECH THERAPISTS. Scientific Bulletin of Namangan State University, 2(10), 358-363.
10. Тешабоева, Ф. Р. (2020). PROBLEMS OF TEACHING THE MODULE "SPECIAL METHODS OF TEACHING THE MOTHER LANGUAGE" AT THE UNIVERSITY. Актуальные научные исследования в современном мире, (5-7), 229-232
11. Rakhimova Khurshidahon Sodiqovna. USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE FORMATION OF SPEECH SKILLS IN CHILDREN WITH HEARING DISABILITIES. International Virtual Conference On Innovative Thoughts, Research Ideas and Inventions in Sciences Hosted from Newyork, USA <http://euroasiaconference.com> January 20th 2021
12. Ayupova Mukarramxon Yuldashevna, Rakhimova Khurshidahon Sodiqovna. CORRECTION-PEDAGOGICAL WORK SYSTEM OF PREPARATION OF CHILDREN FOR INDEPENDENT ACTIVITY AFTER COCHLEAR IMPLANTATION. Proceedings of Global Technovation 2 nd International Multidisciplinary Scientific ConferencebHosted from London, U.K. <https://conferencepublication.com> December 28th, 2020Page 37-39

Proceedings of International Congress on “Multidisciplinary Studies in Education and Applied Sciences”

Hosted Online from Bilbao, Spain on November 10th, 2022.

www.conferencezone.org

-
- 13.Рахимова, X. C. (2020) Factors in the formation of motivation for independence in children on the basis of auditory and speech rehabilitation after cochlear implantation, Scientific Bulletin of Namangan State University, 2(10), 391-396
 - 14.Teshaboeva F.R. Effective factors for the organization of theoretical training in the module" Special methods of teaching the mother tongue" in the field of higher defectological education. Scientific Bulletin of Namangan State University 2 (10), 383-387
 - 15.Sobirkhonovna, M. M. (2020). An Innovative Mechanisms to Increase the Effectiveness of Independent Education of Future Defectologists. International Journal on Integrated Education, 3(11), 210-211.8.
 - 16.Sobirkhonovna, M. M. (2020, December). PROFESSIONAL TRAINING OF FUTURE SPEAKERS IN THE PERIOD OF INDEPENDENT STUDY. In Archive of Conferences (Vol. 10, No. 1, pp. 75-76).
 - 17.Mahmudova, M. S. (2020). THE ROLE OF INDEPENDENT EDUCATION IN THE FORMATION OF PROFESSIONAL COMPETENCIES OF PROSPECTIVE SPEECH THERAPISTS. Scientific Bulletin of Namangan State University, 2(10), 358-363.
 - 18.Тешабоева, Ф. Р. (2020). PROBLEMS OF TEACHING THE MODULE" SPECIAL METHODS OF TEACHING THE MOTHER LANGUAGE" AT THE UNIVERSITY. Актуальныенаучные исследования в современном мире, (5-7), 229-232.
 - 19.Sodiqovna, R. K., & Zulfiya, A. Formation of Independence Motivation Based on Rehabilitation Work with Children with Cochlear Implants. International Journal on Integrated Education, 3(10), 310-312.